

4-mavzu: Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi.

Reja:

- 4.1.** Ixtisoslashuv tushunchasi, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi.
- 4.2.** Qishloq xo'jalik korxonalarini ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi.
- 4.3.** Ixtisoslashuv omillari va tarmoqlari xamkorligining tamoyillari.

Tayanch iboralari: istiqbolli rejalar, ixtisoslashtirish, ishlab chiqarishni joylashtirish, joriy yoki yillik rejalar, operativ ish rejalarini, rejalashtirish, tarmoq, yordamchi tarmoq, hududiy ixtisoslashuv, umumxo'jalik ixtisoslashuvi, ichki xo'jalik ixtisoslashuvi, ixtisoslashuv koeffitsiyenti.

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. **Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.**
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R., Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent-2004 y.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
2. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
3. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
4. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora-tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007.

5.Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririyyati 2004y.

6.Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.

8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizasiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

4.1.Ixtisoslashuv tushunchasi, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi.

Iqtisodiy isloxtalar jarayonida, mulk munosabatlari tubdan o'zgartirilib, xamma qayta tuzilmalar xususiy xarakterga ega bo'lgan bir sharoitga, mos ravishda ijtimoiy mexnat taqsimoti amalga oshirilmasa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'tarilmaydi va qishloq xo'jaligi oldiga qo'yilgan ulkan vazifalar to'liq bajarila olmaydi.

Keng ma'noda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish - bu ijtimoiy mexnat taqsimotidir.

Ixtisoslashtirish deb, bozor talabini xisobga olgan xolda, mamlakat xududlaridagi korxonalarining tabiiy - iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib ilmiy asoslarda, ma'lum turdagi tovar maxsulotlarini ishlab chiqaradigan qilib joylashtirilgan ijtimoiy mehnat taqsimotiga aytiladi.

Ixtisoslashtirish ijtimoiy mexnat taqsimotini sifat tomonini ko'rsatadi, u yoki bu xo'jalikda, tumanda, viloyatda qaysi turdagi maxsulot, xizmat yoki tarmoq yetakchi ekanligini ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirish mamlakat xududida qaysi maxsulotni yetishtirish tabiiy - iqtisodiy va ekologik jihatdan qulay ekanligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun xam ishlab chiqarishni joylashtirish bilan uni ixtisoslashtirish bir birlari bilan uzviy bog'langandir.

Ishlab chiqarishni joylashtirish - bu qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida mamlakat tumanlarining tabiiy - iqtisodiy va ekologik omillarini xisobga olgan xolda, ularda u yoki bu turdagi qishloq xo'jalik ekini yoki chorva mollari turini xamda ularga ko'rsatiladigan xizmatni mos xolda joylashtirishdir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish ijtimoiy mexnat taqsimotini miqdor tomondan ko'rsatib, mamlakat xududlarida joylashgan xar bir xo'jalik, tuman, viloyat, qaysi turdagi qishloq xo'jalik ekinlarini ekishini, chorva mollar turini saqlashni va ularga mos bo'lgan xizmatni ko'rsatishini aniqlab beradi.

Ixtisoslashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muxim shartidir. U bozor iqtisodiyotining mexnat taqsimoti qonuni, mehnat unumdorligini o'sib borishi, mexnat turlarining o'rin almashinuvi kabi umum iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqadi. Ixtisoslashtirish mehnat unumdorligini, xo'jalikning rentabelligi va daromadini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirish bozor uchun eng zarur iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tovar maxsulotlarini yetishtirish va xizmat turlarini ko'rsatish uchun mehnat va moddiy resurslarning bir joyga to'plashni, yangi texnikadan keng va samarali foydalanishga: yangi, ilg'or texnologiya va mehnatni tashkil etishni ijara munosabatlari va oila pudrati usullarini joriy etishga qulay sharoit yaratib, yetishtiriladigan maxsulot miqdorini va xizmat turini anchagina ko'paytirish imkonini beradi, mehnat unumdorligini oshiradi, xo'jaliklarning ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish korxonalar oldida turgan asosiy vazifalarni to'liq bajarilishi ya'ni, ishlab chiqarishga ilg'or, ekologik toza agrotexnika, zooveterinariya, texnikaviy xizmat, organik va mineral o'g'itlar xamda o'simliklarni va chorvani ximoya qilish vositalarini, fan yutuqlari, ilg'orlar ish tajribasini joriy etib, ulardan unumli foydalanib, mehnat va mablag'larni kam sarflagan xolda qishloq xo'jaligiga yaroqli xar bir gektar yer va shartli bosh mol xisobiga dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini mumkin qadar tez va barqaror ko'paytirishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish bo'yicha ish olib borganda qo'yidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim:

- ❖ ixtisoslashtirish va joylashtirishda muntazamlilik va barqarorlik;
- ❖ xo'jalik iqtisodini va ishlab chiqarish tuzilmalarini xisobga olgan xolda, tashkiliy mulk shaklini va ishlab chiqarish yo'nalishini tanlashga ilmiy yondoshish;
- ❖ korxonalarining bir-biri bilan ixtiyoriy xamkorlik va iqtisodiy mustaqilligini saqlash;
- ❖ korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni tashkil qilishda, ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshirishda va mehnat resurslaridan foydalanishda demokratik tamoyillarga amal qilish;
- ❖ ish bajaruvchilarning mehnat unumdorligini o'stirganligi uchun moddiy manfaatdorligini ta'minlash.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirishga qo'yidagi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi:

- ❖ bozor talabini xisobga olish;
- ❖ ishlab chiqarish resurslaridan unumli va to'la foydalanish;
- ❖ ishlab chiqarishni iste'molchilarga yaqinlashtirish;
- ❖ xar bir iqtisodiy tumanni o'zida ishlab chiqarilgan maxsulotlari xisobiga, o'z talabini qondirish;
- ❖ jumhuriyat, viloyat va tumanlarda mexnat taqsimotini xisobga olish va mexnat bozorini tashkil etish.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirishda qo'yidagi omillarga e'tibor berish lozim:

- ❖ yirik sanoat markazlari va shaxarlar talabini xisobga olish;
- ❖ qishloq xo'jalik maxsulotlari xarakteriga, tez buzilish, tashish qiyinchiligi, transport xarakati va xokazolarga;
- ❖ maxsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xom ashyo xarakteriga - sut qatiq, yog' va boshqa maxsulotlar yetishtirish uchun ozuqani chorva mollariga yaqinlashtirishga;
- ❖ transport vositalari xamda yo'llar xolatiga;
- ❖ maxsulotlarni qayta ishlash, saqlash va sotuvchi korxonalarini joylashishiga va rivojlanish darajasiga;
- ❖ mintaqa axolisi, uning mexnatga yaroqli qismi, mexnat malakasi, kasbi va bo'sh ish o'rinlarining mavjudligiga.

Ixtisoslashtirishni aniqlovchi ko'rsatkichlar qo'yidagilardan iborat:

- ❖ tovar maxsulotlarining tarkibi;
- ❖ tovar maxsuloti tarkibida ayrim ekin turlari yoki tarmoqlarning tutgan o'rni;
- ❖ maxsulotlarning tovarlilik darajasi.

Qo'shimcha ko'rsatkichlar qo'yidagilardir: 100 gektar qishloq xo'jalik ekin maydoni

xisobiga yetishtiriladigan tovar maxsuloti (qiymat va natura ko'rsatkichlari), maxsulot tarkibi, 100 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondi xisobiga va o'rtacha bir xodim xisobiga to'g'ri keladigan tovar maxsuloti va xokazolar.

4.2. Qishloq xo'jalik korxonalarini ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning tamoyillaridan biri ularda ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va ishlab chiqarishda mavjud tarmoqlarni eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga muvofiq uyg'unlashtirishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligi sohasida korxonalarining ixtisoslashuvi deyilganda ularning faoliyati natijasida mahsulotlarning avvaldan belgilangan yoki ma'lum bir turlarini ishlab chiqarishga qaratilganligi tushuniladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida bu jarayon, odatda ma'lum bir sohalarning qisqarishi tufayli ikkinchi bir soha yoki sohalarning kengayishi bilan bog'liq.

Ixtisoslashuvning maqsadi korxonalarining ma'lum bir tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishga moslashuvdan keladigan daromadlarni ko'paytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, chiqimlarni kamaytirish, mehnat samaradorligini yuksaltirish hamda mahsulot sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Ixtisoslashuv ishlab chiqarish resurslarini markazlashtirib, ko'p tarmoqli xo'jalikdan ixtisoslashgan xo'jalikka o'tish, qishloq xo'jaligi oldida samaradorlik hamda sifat ko'rsatkichlarini oshirish vazifasi turgan hozirgi iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashuv ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi ko'rsatkichlari asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, qishloqlarda ijtimoiy muammolarni hal etishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tashkiliy asosining dastagi sifatida harakat qiladi.

Mehnat taqsimoti va uning o'ziga xos shakli ya'ni-ixtisoslashuv ishlab chiqarishning tovar formasi bilan bir paytda paydo bo'lgan. Ular, mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqarilishi rivoji, korxonalar va tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mahsulot almashuvi hamda o'zaro xizmat ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashuvning o'z obyektiga ega bo'lgan turli shakllari mavjud.

Hududiy ixtisoslashuv ma'lum bir hududlar yoki ma'muriy tumanlar, viloyatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishga ushbu hududlarda qulay shart-sharoitlar mavjudligida ifodalanadi. Ayni paytda ixtisoslashuvning bu shaklida o'sha hududga xos tabiiy va iqtisodiy omillar eng yuqori aniqlik bilan hisobga olinadi. Chunki bu hisob-kitoblar natijasida mehnat samaradorligining yuqori darajasi va xarajatlarning qisqartirilishiga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillari, iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvi davrida tovar mahsulotlari ishlab chiqarishning turli ko'rinishlariga ixtisoslashgan yirik hududlar tashkil topdi. Bu eng avvalo, paxta xomashyosi, g'alla, sholi, pilla, chorva, sabzavot va meva mahsulotlari, jun, sut va h.z. larga moslashgan mavjud qishloq xo'jaligi korxonalarining qayta tuzilishi va yangilarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Hududiy ixtisoslashuvni kengaytirish qishloq xo'jaligi korxonasi ishlab chiqarishining uzoq muddatli rejalashtirishini nazarda tutadi. Bu rejaning maqsad va vazifalari hududning, tumanning, viloyatning tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Shu narsani hisobga olish kerakki, hududiy ixtisoslashuvda zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lganda ham bu hududlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva mahsulotlarini sanoat tarzida qayta ishlab chiqarishning imkoniyati borligi eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Hozirgi sharoitda mahsulotlarni qayta ishlov berib, ishlab chiqarishsiz kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish uzoq muddatli reja asosida olib boriladi. Uning mazmuni joy yoki hududning tabiiy hamda iqtisodiy shart-sharoitlari bilan aniqlanadi. Mazkur joy uchun qulay bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva turlari, sanoat qayta ishlab chiqarishi tabiiyki rivojlanadi.

Umumxo'jalik ixtisoslashuvi. Ixtisoslashuvning bu shakli tovar mahsulotlari ishlab chiqarishda ayrim qishloq xo'jaligi korxonalarida o'rtasida mehnat taqsimotini anglatadi. Uning asosiy tamoyili tovar ishlab chiqarish tar-moqlarining eng kam miqdorida eng ko'p mahsulot yetishtirishga erishishdir. Bir tarmoq bilan ishlab chiqarishni tashkil qilish mumkin bo'lgan yerda ikki, ikki tarmoq yetarli bo'lganda uch tarmoqni tashkil etish xo'jalik uchun ortiqcha qiyinchiliklarni tug'dirib, uning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Ba'zi qishloq xo'jaligi korxonalarida hududiy va umumxo'jalik ixtisoslashuvi o'zaro bog'liqdir. Hududiy ixtisoslashuv qancha rivojlangan bo'lsa, umumxo'jalik ixtisoslashuvi uchun shuncha qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Ikkinchi tomondan, alohida xo'jaliklar qancha ko'p ixtisoslashsa, u yoki bu turdagi mahsulotni ishlab chiqarish hajmi shunchalik kengayadi.

Alohida qishloq xo'jaligi korxonalarida, mehnatning hududiy taqsimoti va hududiy ixtisoslashuvga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Hududiy va umumxo'jalik ixtisoslashuvi istisno tarzida tovar ishlab chiqarishga mansubdir, ya'ni bunga tegishli korxonalar faqat o'z hududlaridan tashqarida sotishga mo'ljallangan mahsulotlar turlarini ishlab chiqaradilar. Ammo deyarli barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sezilarli qismi ularning o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Shu sababli yalpi mahsulot tovar mahsulotiga nisbatan ancha ko'p ishlab chiqariladi.

Ichki xo'jalik ixtisoslashuvi tovar ishlab chiqarishiga ham, tovar bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ham taalluqlidir.

Bu ixtisoslashuvning hududiy va umumxo'jalik shakllaridan farqi ham ana shunda. Ixtisoslashuvning bu shakli ishlab chiqarishni xo'jalikning bo'linmalari va tarmoqlari bo'yicha oqilona joylashtirishga qaratilgan.

Ichki xo'jalik ixtisoslashuvining asosiy maqsadi - ma'lum bir tur mahsulotlar ishlab chiqarilishi yoki bo'linmalarning eng kam miqdorini joylashuvidan iboratdir.

Yuqorida sanab o'tilgan ixtisoslashuv shakllari hududiy (hudud, xo'jalik, bo'linma) belgilar bo'yicha farqlangan. Ichki xo'jalik ixtisoslashuvi mehnatning texnologik taqsimotiga asoslanadi. Bunday holatlarda bir necha mustaqil korxonalar yoki bo'linmalar mahsulotning qandaydir bir turini ishlab chiqaruvchi kooperasiyalarga birlashadi. Har bir ishtirokchi texnologik jarayonning ma'lum bir qismini bajarib, ikkinchisiga yarim fabrikatlarni yetkazib beradi. Chorvachilikda, masalan bir xo'jalik g'unajinlar yoki buzoqlar yetkazib berishga, ikkinchisi sut ishlab chiqarishga, uchinchi biri ozuqa mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashuvi mumkin. Natijada yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish tashkil topadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida parrandachilik, yirik shoxli mollarni ozuqlantirish, sabzavot mahsulotlari yetishtirish va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining samarali faoliyatiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ichki xo'jalik ixtisoslashuvini chuqurlashtirish qisqa muddatlarda katta samara berishi mumkin.

Xo'jalik faoliyatini samarali yuritish, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi ko'pgina muammolarni to'g'ri hal qilishda ilmiy asoslangan rejalashtirish, moddiy-texnik ta'minot, ishlovchilarni moddiy rag'batlantirishda qishloq xo'jaligi korxonasi va bo'linmalarining ixtisoslashuvi, ya'ni ishlab chiqarish yo'nalishini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega.

Shakllangan ixtisoslashuvni to'g'ri aniqlash uchun ma'lum ko'rsatkichlar va mezonlardan

oqilona foydalanish zarur. Ixtisoslashuv joriy va qiyosiy baholarda hisoblanadigan tovar mahsuloti ishlab chiqarish samarasini belgilaydigan hodisadir.

Amaliyotda shakllangan ishlab chiqarish yo'nalishini asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy daromadda so'nggi uch yil davomidagi mahsulot realizatsiyasidagi ulushi bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi.

Ixtisoslashgan xo'jaliklar deb mahsulot realizatsiyasidan bosh tarmoqda umumiy foydaning 50 % dan kam bo'lmagan hissasiga ega bo'lgan korxonalarni hisoblash mumkin. Masalan, agar xo'jalikda paxta yoki g'alla hissasi 50% yoki undan ortiqni tashkil etsa, bunday korxonada paxtachilik yoki g'allachilik yo'nalishidagi xo'jalik hisoblanadi. Agar qishloq xo'jaligi korxonasida ikki sohadan har birining hissasi 25 %dan kam bo'lmasa, bunday xo'jalik ham ixtisoslashgan korxonada hisoblanadi va uning ishlab chiqarish yo'nalishi bosh tarmoq, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasidan tushgan umumiy foydaning nisbatan ko'p qismini tashkil etgan sohaning ulushiga qarab aniqlanadi.

Uch yoki undan ziyod asosiy sohalarga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari ixtisoslashgan xo'jaliklar tarkibiga kirmaydi.

O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashuv yo'nalishi bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalari asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

-o'simlikchilik: g'allachilik, sabzavotchilik, paxtachilik, pillachilik, sholikorlik, mevachilik, poliz mahsulotlari va h.z. ishlab chiqaruvchilar;

-chorvachilik: sut mahsulotlari, go'sht mahsulotlari, yilqichilik, qo'ychilik va parranda mahsulotlari yetkazuvchilar.

Ixtisoslashuv darajasini xarakterlovchi va loyiha qarorlarini baholashga imkon beruvchi - umumiy ko'rsatkich bu qishloq xo'jaligi korxonasining ixtisoslashuvi koeffitsiyentidir. Ixtisoslashuv koeffitsiyenti (K) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$K=100 / U(2N-1) \quad (5.1)$$

bunda: U - tovar mahsulotida alohida tarmoq ulushi;

N - har bir mahsulot turida ulush bo'yicha tartib raqami.

Agar ixtisoslashuv koeffitsiyenti 0,2 dan kam bo'lsa bu past daraja, 0,2 dan 0,4 gacha, o'rtacha, 0,4dan 0,6 gacha yuksak, 0,6dan yuqorisi juda yuksak daraja hisoblanadi. Bir tur tovar mahsuloti ishlab chiqaradigan korxonaning ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1,0 ga. teng. Qishloq xo'jaligi korxonalarining ixtisoslashuvini aniqlash uchun boshqacha yondashuvlar va mezonlar ham mavjud.

4.3. Ixtisoslashuv omillari va tarmoqlar hamkorligining tamoyillari.

Qishloq xo'jaligi korxonasini ixtisoslashtirishdan maqsad - daromadni ko'paytirish uchun sharoit yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, chiqimlarni kamaytirish, mehnat samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Ko'p tarmoqli xo'jalikdan ishlab chiqarish resurslarining yuksak darajada markazlashgan ixtisoslashgan xo'jalikka o'tishi qishloq xo'jaligi sohasida samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash vazifalari turganda alohida ahamiyat kasb etadi. Ixtisoslashuv qishloq xo'jaligining barqarorligini ta'minlovchi, ishlab chiqarishning yuksak samaradorligida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiruvchi, qishloqda ijtimoiy muammolarni hal qilishni ta'minlovchi tashkiliy omil sifatida yuzaga chiqadi.

Mehnat taqsimoti va uning o'ziga xos shakli bo'lgan - ixtisoslashuv ishlab chiqarishning tovar formasi bilan birga paydo bo'lgan. U tovar ishlab chiqarish rivoji, tashkilotlar hamda tovar ishlab chiqaruvchilararo mahsulot va xizmat ayirboshlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini ixtisoslashuvi murakkab iqtisodiy jarayon sifatida ko'pincha qarama-qarshi yo'nalishlarda, ya'ni goh tezlashtiruvchi, goh sekinlashtiruvchi ko'pgina omillarning ta'sirida rivojlanadi. Har qanday sharoitda ham u ishlab chiqarishni tashkillashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xo'jaliklarda ixtisoslashuvning tezlashuvi, xususan qishloq xo'jaligi mashinasozligida ilmiy-texnik taraqqiyotga imkon yaratadi. Qishloq xo'jaligini yirik mashinali ishlab chiqarish tarmog'iga aylantirish, asosiy texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, tizimga mashinalarni kiritishga imkon beradi.

U yoki bu tarmoqda, masalan g'alla yig'imi, paxta yig'imi va h.z.larda nisbatan mahsuldor va tor ixtisosdagi ishlab chiqarish texnikasini yaratish tarmoq ixtisoslashuvini talab qiladi.

Sermashaqqat mehnat talab qiladigan sohalarni mexanizatsiyalash bir operatsiyali mashinalar, shunidek aniq bir mahsulot uchun bir necha texnologik operatsiyalarni uyg'unlashtirgan mashinalar majmuasini, namunali binolarni talab qiladi.

Ixtisoslashuv jarayoni tezlashuviga tabiiy sharoitlar (tuproq, iqlim, joy relyefi) ham ta'sir ko'rsatadi. Bu va shu kabi boshqa omillarni, alohida nazarda tutish lozim. Yaxshi yo'llar va yetarlicha transport vositalarining mavjudligida yuksak tabiiy unumdor joylarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi konsentratsiyasi keskin kuchayadi.

Yirik industrial markazlarni yaratish, sotuv bozorining mavjudligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining amaldagi baholari ham qishloq xo'jaligi korxonalarining ixtisoslashuvini tezlashtiradi. Ixtisoslashuvga imkon yaratadigan omillarning harakati birgalikda, har bir korxonaning ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida o'z vazifasi bo'lishiga olib keladi.

Qarama-qarshi yo'nalishda o'z-o'zini ta'minlash, yil davomida ishning bir tekis taqsimlanishi, qo'shimcha mahsulotdan foydalanish kabi ixtisoslashuvga to'siq bo'ladigan omillar amal qiladi. Universalligi bilan farqlanadigan ko'p tarmoqli xo'jaligi bo'lgan tumanlarda shunday holatlar mavjud bo'ladi. Ular bir xil nisbatlarda bir xil mahsulotlarga ishlov beradilar, almashlab ekishda bir xillikga egalar, bir xil turdagi jonivorlarni boqadilar. Ixtisoslashuvning chuqurlashuvi turli tarmoqlar va ishlab chiqarishda universal ishlab chiqarish kuchlarining yaratilishidan foydalanishga to'sqinlik qiladi. Zamonaviy shudgorlash traktori, traktorchiga paxta, kartoshka, ozuqa mahsulotlariga ishlov berish imkonini beradi. Xo'jalikda bir necha tarmoqlarning mavjudligida tuproq unumdorligini oshirishning vositasi sifatida almashlab ekish juda muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashuvning chuqurlashuvi bilan bir xo'jalik doirasidagi turli tarmoqlarning o'zaro aloqasi barcha qo'shimcha mahsulotdan foydalanish hisobiga kuchsizlanib boradi. Mehnat taqsimoti darajasiga qarab sohalararo muvozanat bir-birini to'ldiruvchi ixtisoslashgan xo'jalik tizimiga yaqinlashadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida tarmoqlarni muvo-fiqlashtirishning quyidagi tamoyillari mavjud:

- o'z-o'zini mablag' bilan qoplash asosida ishlab chiqarishni yuritishning eng samarador va iqtisodiy barqaror darajasiga erishish;
- xo'jalikning tuproq-iqlim va iqtisodiy o'ziga xosliklarini eng yuqori darajada hisobga olish;
- xalq xo'jaligi ehtiyojlarini yuqori sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligida mulklarning mavjud samaradorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish;
- mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiyligini kamaytirish;
- ishlab chiqarish vositalari, eng avvalo traktorlar, kombaynlar va boshqa qimmatbaho mashina hamda jihozlardan samarali foydalanish;

- mahsulotlarni realizasiya qilish punktlarini tashkil qilish, transport chiqimlarini kamaytirish;

- korxonaning oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish vositalari, turli xizmatlarga ichki ehtiyojlarini qondirish;

- mahalliy aholining kasbiy ko'nikmalaridan foydalanish.

Qishloq xo'jaligi xilma-xil tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi, bir-biri bilan o'zviy bogliq va bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar majmuasidan tashkil topgan.

Tarmoq deb, bir-biridan ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi, foydalaniladigan asosiy va aylanma vositalarning tarkibi, ishchi kuchlarining xarakteri, malakasi, kasbi va pirovard mahsuloti bilan farqlanadigan soxalarga aytiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida dexqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bir-biri bilan uzviy bogliqdir. Bu tarmoqlar o'z navbatida qator yana xam chuqur ixtisoslashgan tarmoqlarga ajraladi. Dexqonchilikda, ishlab chiqariladigan mahsulot turiga qarab: donchilik, paxtachilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, bogdorchilik va boshqalar; chorvachilikda mollar turiga asosan: qoramolchilik, cho'chqachilik, qorako'chilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va xokazolar.

Tarmoqlar o'z navbatida asosiy yoki yetakchi, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo'linadi. Bunday turkumlash asosida tarmoqlarda ishlab chiqariladigan tovar mahsulotlarining salmog'i va tutgan o'rni xisobga olinadi.

Asosiy tarmoq korxonada ishlab chiqariladigan tovar mahsulotining 2/3 (uchdan ikki) qismini yoki 66 foizidan ortigini berishi lozim. U xo'jalikning ixtisoslashganligini belgilaydi, ishlab chiqarish tarkibi shu asosiy tarmoqqa bogliq.

Qo'shimcha tarmoq deb, yalpi va tovar mahsulotining eng kamida 1/3(uchdan bir) qismini tashkil etadigan tarmoqqa aytiladi. Qo'shimcha tarmoqlar asosiy tarmoqning rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir etib, korxonada mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan to'la va samarali foydalanish uchun sharoit yaratib beradi. Qo'shimcha tarmoqlarga -paxtachilik xo'jaliklarida - pillachilik, sut va go'sht ishlab chiqaruvchi fermalar, sabzavotchilik, kartoshkachilik va xokazolar kiradi.

Yordamchi tarmoq (yoki yordamchi sanoat korxonlari) - bu qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlaydigan - tegirmonlar, objuozlar, sutni qayta ishlovchi sexlar, sabzavot, meva, uzumni qayta ishlaydigan korxonalar, shuningdek qurilish materiallari tayyorlaydigan: g'isht, cherepisa zavodlari, taxta tiladigan - piloramalar, inventarlar yasaydigan, qurilish materillari tay/laydigan ustaxonalar; maishiy xizmat ko'rsatadigan- oshxona, nonvoyxona, tikuvchilik, poyafzal va boshqa ustaxonalar kiradi. Qo'shimcha tarmoqlar yil davomida qishloq joylaridagi ortiqcha mexnat resurslaridan to'la va bir tekis foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga asta-sekin o'tkazish, korxonalarining yangi shakllarini paydo bo'lishiga olib keldi, ularda yangicha mexnat taqsimoti shakllanmokda, xamda asosiy, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlarni muvofiqlashtirishning yangicha shakllari vujudga kelmoqda. Tarmoqlarni muvofiqlashtirishdan ko'zda tutilgan maqsad, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy vosita bo'lgan yerdan yanada unumli foydalanishdir.

Tarmoqlarni to'g'ri, ilmiy asosda muvofiqlashtirish barcha ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish, transport xarajatlarini qisqartirish, mablag'lar aylanishini tezlatish va sof daromadni oshirish imkonini beradi.

Tarmoqlarni bir-biriga maqsadga muvofiq ravishda muvofiqlashtirishning iqtisodiy tamoyillari qo'yidagilardan tashkil topadi:

❖ bozorni yuqori sifatli, arzon, raqobatga chidaydigan qishloq xo'jalik maxsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish;

❖ to'la xo'jalik xisobi va o'z-o'zini moliyalash tamoyillari asosida yuqori samaradorlikka va xo'jalik yurtishni mustaqilligiga erishish;

❖ korxonaning tabiiy-iqlim va iqtisodiy xususiyatlarini keng ko'lamda xisobga olish;

❖ qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning xosildorligini oshirish va ulardan to'la va to'g'ri foydalanish;

❖ mexnat taqsimotini to'g'ri rejalashtirish asosida mexnat resurslaridan unumli foydalanish va ishlab chiqarishda mavsumiylikni pasaytirish;

❖ ishlab chiqarish vositalaridan va xususan energiya bilan qurollangan, yuqori qiymatli texnika vositalaridan unumli foydalanish;

❖ tovar maxsulotlarini sotish makonlarini kengaytirish va transport xarajatlarini kamaytirish;

❖ korxonaning oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan ichki talablarini qondirish, axolini texnika xizmati yordamiga bo'lgan ehtiyojlarini bajarish.

Asosiy va qo'shimcha tarmoqlarni muvofiqlashtirib borish ularning bir me'yorda rivojlanishini ta'minlaydi. Tarmoqlarni muvofiqlashtirib borish shakllari juda ko'p Ular ishlab chiqarishning maxalliy, tabiiy va iqtisodiy sharoitlariga bog'liq bo'lib, xar gektar yerdan, xar bir bosh chorva molidan ko'proq miqdorda, arzon mahsulot olish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar.

1. Qishloq xo'jaligida ijtimoiy mexnat taqsimoti nimadan iborat.
2. Ixtisoslashtirish deb nimaga aytiladi.
3. Ixtisoslashtirishning tamoillarini ayting.
4. Ixtisoslashtirishni turkumlang
5. Ixtisoslashtirishning asosiy va qo'shimcha ko'rsatgichlarini ayting
6. Ixtisoslashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ayting
7. Ishlab chiqarishni joylashtirish deb nimaga aytiladi.
8. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
9. Tarmoq deb nimaga aytiladi.
10. Qishloq xo'jalik tarmoqlarini ta'riflang
11. Bosh tarmoq deb nimaga aytiladi.
12. Yordamchi tarmoq deb nimaga aytiladi.
13. Qo'shimcha tarmoqlarga misol keltiring.
14. Tarmoqlarni muvofiqlashtirish tamoyillarini ayting.
15. Qishloq xo'jalik korxonalarining tiplari deb nimaga aytiladi.
16. Korxonalar tiplarini turkumlang.
17. Qishloq xo'jalik korxonalarini xajm ko'rsatgichlarini ayting.
18. Yirik korxonalarining afzalliklari va samaradorligini tushuntiring.

GLOSSARIY

HUDUDIY IXTISOSLASHUV- ma'lum bir hududlar yoki ma'muriy tumanlar, viloyatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishga ushbu hududlarda qulay shart-sharoitlar mavjudligida ifodalanadi.

ISTIQBOLLI REJALAR - uzoq muddatli davrlar uchun korxonani iqtisodiy-ijtimoiy

rivojlantirish nisbatlari va yo'nalishlarini belgilab beruvchi rejalar.

IXTISOSLASHTIRISH - mavjud tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar va boshqa omillar ta'sirida u yoki bu mahsulot turlarini ishlab chiqarishga moslashuv.

ISHLAB CHIQRISHNI JOYLASHTIRISH - bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida mamlakat tumanlarining tabiiy - iqtisodiy va ekologik omillarini xisobga olgan holda, ularda u yoki bu turdagi qishloq xo'jalik ekini yoki chorva mollari turini xamda ularga ko'rsatiladigan xizmatni mos holda joylashtirishdir.

IXTISOSLASHUV KOEFFISIYENTI -ixtisoslashuv darajasini xarakterlovchi va loyiha qarorlarini baholashga imkon beruvchi umumiy ko'rsatkich.

JORIY YOKI YILLIK REJALAR - korxonada va uning dastlabki ishlab chiqarish bo'linmalari (brigada, ferma, oila pudrati) yillik ishlab chiqarish reja va topshiriqlari kiradi.

OPERATIV ISH REJALARI - mavsumiy xarakterga ega bo'lgan sohalarda ayrim ish davrlari (ekish, hosilni yig'ib-terib olish, qo'zilatish, chorva mollarini semirtirish va h.k.) uchun tuzilgan, ishlab chiqarish bir me'yorda kechadigan sohalarda esa chorak, oylar (sut, go'sht yetishtirish) bo'yicha tuzilgan rejalar va ayrim ishlarni bajarish uchun berilgan muddatli reja naryadlar.

REJALASHTIRISH - korxonani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yo'llari va sur'ati, tarmoqlar va bo'linmalar, takror ishlab chiqarishning asosiy bo'g'inlari o'rtasida to'g'ri mutanosiblikni (proporsionallikka) tashkil etish jarayoni, boshqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy tizimning kelgusi holatini, unga erishish yo'llari, usullari va vositalarini belgilab beruvchi rejalarini ishlab chiqarish va amalda qo'llashdan iborat.

TARMOQ - qo'llanilayotgan vositalar, ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkil qilish xususiyati hamda mahsulotlardan foydalanish tartibiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ishlab chiqarishning bir qismi.

YORDAMCHI TARMOQ - korxonaning tovar mahsuloti bo'yicha asosiy tarmog'idan keyingi o'rinda turadigan, asosiy tarmoq bilan texnologik hamda tashkiliy jihatdan bog'langan, asosiy tarmoqning muttasil rivojlanib borishi uchun bevosita yordam ko'rsatadigan tarmoq.

XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI - alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir.